

# SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

**Muratova Shohista Nimatullayevna**

Bojxona instituti, i.f.d., professor

ORCID 0000-0002-8133-9094

E-mail: [shohista11@mail.ru](mailto:shohista11@mail.ru)

## Annotatsiya

Maqolada xalqaro tajriba tahlili asosida import o‘rnini bosish bo‘yicha davlat siyosatining samaradorligini, xususan sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida ofset mexanizmlarini qo‘llash, davlat xaridlari, sertifikatlashtirish va standartlashtirish institutlarini rivojlantirish orqali oshirishga imkon beradigan chora-tadbirlarni aniqlash jihatlari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari sanoatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llash imkoniyatidan kelib chiqib, import o‘rnini bosish siyosatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** import o‘rnini bosishni rag‘batlantirish, milliy sanoat, sanoat siyosati, raqobatbardoshlik, imtiyozli soliqqa tortish, ofset mexanizmi.

## Аннотация

В статье на основе анализа международного опыта исследованы вопросы определения эффективности государственной политики по импортозамещению, в том числе путем применения офсетных механизмов

в отраслях промышленного производства и развития института государственных закупок, сертификации и стандартизации. Также предложены меры по совершенствованию политики импортозамещения исходя из возможности применения результатов исследований при разработке программ развития промышленности.

**Ключевые слова:** стимулирование импортозамещения, национальная промышленность, промышленная политика, конкурентоспособность, льготное налогообложение, офсетный механизм.

## Abstract

Based on the analysis of international experience, the article examines the issues of determining the effectiveness of state policy on import substitution, including through the use of offset mechanisms in industrial production and the development of the institute of public procurement, certification and standardization. Measures are also proposed to improve the import substitution policy based on the possibility of applying research results in the development of industrial development programs.

**Keywords:** stimulation of import substitution, national industry, industrial policy, competitiveness, preferential taxation, offset mechanism.

## KIRISH

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi nuqtayi nazardan, rivojlanayotgan mamlakatlar xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni rivojlangan mamlakatlarga eksport qilib, ulardan tayyor mahsulotlarni import qilayotgani bilan izohlanadi.

Bunday mamlakatlar oldida turgan asosiy muammo shundaki, ular xomashyo resurslarini sotishdan faqat bugungi kun uchungina daromad olib, raqobatbardosh va rentabelli tovarlar ishlab chiqarish imkonini beradigan ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirmaydi. Agar bunday tendensiya uzoq vaqt davom etsa, bu kabi davlatlar rivojlanish bosqichida qolib ketadi. Shuni ta'kidlash kerakki, import o'rnini bosish yo'nalishlari ko'p jihatdan davlat iqtisodiy siyosatining ustuvorliklarini joriy vaziyat va muammoning "keskinligidan" kelib chiqqan holda tushunishga tayanishi lozim.

Dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar, xalqaro savdo tendensiyalari va siyosatidan kelib chiqib, bu borada O'zbekiston Respublikasi ham import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026-yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish [1, 2], importni optimallashtirish masalalari hamda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish imkoniyatlarini o'rganish [3] masalalarida amaliy chora-tadbirlarni, ularning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlagan holda, amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan jarayonlar, mamlakat iqtisodiyotiga tashqi xatarlarning ortib borishi, shuningdek, global raqobatning keskinlashuvi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ishonchli muhofaza qilish va shu bilan bir qatorda eksportni samarali qo'llab-quvvatlashni zarur qilib qo'yimoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat tovarlari importi o'rnini bosish siyosati iqtisodiy mustaqillikka erishish va valyuta mablag'larini tejash orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu siyosatning ilmiy asoslarini yoritishda turli iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida mahalliy ishlab chiqarishning rag'batlantirilishi, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi va ichki bozorni to'ldirish strategiyalarini atroflicha tahlil qilgan.

Jumladan, I.K. Zayonchkovskaya sanoatlashtirish va importni kamaytirish siyosatini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rib chiqib, ichki ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish orqali tashqi bozorlarga qaramlikni kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va infratuzilma yordami orqali davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

A. Aganbegyan esa industrial siyosatni tartibga solishda texnologik asarlarni milliy lashtirish zarurligini urg'ulaydi. U ilg'or xorijiy texnologiyalarni mahalliy lashtirish va ularga moslashtirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish orqali import o'rnini bosish siyosati uzoq muddatli ijobiy natija berishini isbotlagan.

Bugungi kunda iqtisodiyotda mavjud import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish modellarida eksport va importni amalga oshirish imkoniyatlari hamda milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli jihatlar alohida ko'rsatib o'tiladi. Shu paytgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda import o'rnini bosish masalasi bir muncha keng tushuntiriladi. A.G. Badalovanning fikricha, import o'rnini bosish — bu importni mamlakat ichida ishlab chiqarilgan tovarlar bilan almashtirishni ifodalaydi va, odatda, uchta turi ajratib ko'rsatiladi:

1. Keyinchalik mahsulot va xizmatlarni mamlakat ichida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida texnologik uskunalarni importi o'rnini bosish.

2. Mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar importi o‘rnini bosish.


3. Ishlab chiqarishning ichki bozorda raqobatbardosh bo‘lmagan tayyor mahsulotlar importi o‘rnini bosish [4].

### METODOLOGIYA

Tadqiqotimiz davomida xorijiy mamlakatlar hamda respublikamizda import o‘rnini bosishni rag‘batlantirish amaliyoti mahalliy tovarlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va import o‘rnini bosish imkoniyatiga erishish jihatidan monografik tahlil qilindi. Rivojlangan davlatlarda import o‘rnini bosish amaliyotini yoritishda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, deduksiya va induksiya kabi ilmiy usullar, shuningdek, normativ-huquqiy va empirik yondashuvlardan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida import o‘rnini bosish vazifasi odatda alohida shaklda qo‘llanilmaydi. Aksincha, bu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotishni kengaytirish yo‘nalishida milliy sanoatni rivojlantirishni rag‘batlantirish, shu jumladan import o‘rnini bosish muammolarini hal etish bilan bog‘liq. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarning o‘zaro hamohangligi hamda muvozanatini saqlashga alohida e‘tibor qaratiladi (1-rasm).



**1-rasm. Davlat sanoat siyosatining maqsadlari<sup>1</sup>**

Sanoat siyosatining maqsad va vositalari mamlakatning milliy xususiyatlari va rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarning sanoat siyosatini shakllantirishda qo‘llanilgan mexanizmlar va

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

ustuvorliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari, davlat xaridlari, bojxona va tariflarni tartibga solish, davlat subsidiyalari hamda standartlashtirish davlat sanoat siyosatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan instrumentlar mavjud sharoitga qarab turli maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, import ulushi past bo‘lgan segmentlarda soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar mahalliy ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, undan keyingi bosqichda esa ishlab chiqarish korxonalarini eksport bozorlariga chiqarish hamda ularning raqobatbardoshlik darajasini saqlab qolish uchun korxonalarni modernizatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin. Importga qaram bo‘lgan tarmoqlarda esa xuddi shu mexanizmlar korxonalarni bevosita qo‘llab-quvvatlash emas, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Rivojlangan davlatlarda sanoat siyosatiga yondashuvlar<sup>1</sup>

Davlat	AQSH	Germaniya	Fransiya
<b>Sanoat siyosatining maqsadi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sanoat raqobatbardoshligining o‘sishi;</li> <li>- ichki bozorni himoyalash;</li> <li>- sanoat tovarlarining tashqi bozorlarini kengaytirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sanoat, ayniqsa innovatsion sohalar raqobatbardoshligining o‘sishi;</li> <li>- iqtisodiyotning infratuzilmaviy tarmoqlarini davlat tasarrufidan chiqarish.</li> </ul>	milliy sanoatning Yevropa Ittifoqi bozor muhitiga integratsiyala-shuviga o‘tish
<b>Sanoat siyosatining instrumentlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mudofaa majmuasi orqali innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- xalqaro bozorlarda maksimal mumkin yordam;</li> <li>- kasaba uyushmalari bilan kelishuvlar;</li> <li>- yirik korporatsiyalar uchun majburiyatlarni qayta shakllantirishda bevosita ko‘maklashish.</li> </ul>	Federal darajadagi instrumentlar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- innovatsiyalarni rag‘batlantirish;</li> <li>- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- strategik muhim tarmoqlarni subsidiyalash (ko‘mir).</li> </ul> Sanoatni rivojlantirishning hududiy instrumentlari: <ul style="list-style-type: none"> <li>- hududlarda imtiyozlar berish bo‘yicha maksimal vakolatlar;</li> <li>- hududlarda infratuzilmani rivojlantirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sanoat infratuzilmasini rivojlantirish uchun soliq, pul-kredit, byudjet siyosatining bilvosita instrumentlarini kengaytirish;</li> <li>- savdo vakolatxonalari orqali eksportni maksimal qo‘llab-quvvatlash, tashqi savdo operatsiyalarining davlat sug‘urtasi va eksportyorlarni imtiyozli kreditlash.</li> </ul>

Rivojlangan mamlakatlar sanoat rivojlanishini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari mexanizmini faol qo‘llaydilar, ayniqsa ilmiy-tadqiqot ishlari nuqtai nazardan, bu har doim ham foyda keltirmaydigan xavfli investitsiyalardir. Masalan,

<sup>1</sup> [5] adabiyot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shvetsiyada kompaniyaning ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlarining 10 foizi soliقدan ozod qilingan, shuningdek, joriy yilda o'tgan yilga nisbatan ilmiy-tadqiqot-konstruktorlik xarajatlarining oshishiga 20 foizgacha stavka belgilangan. Fransiya va Germaniyada joriy tadqiqot va ishlab chiqish xarajatlari hisobdan chiqarilishi mumkin. Tadqiqot soliq imtiyozlari Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Avstraliya, Avstriya, Vengriya, Ispaniya, Portugaliya, Kanada, Fransiya, Norvegiya, AQSh, Yaponiya, Meksika va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda qo'llaniladi. Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Shvetsiya innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun bilvosita soliqlardan foydalanadilar. Bu davlatlar innovatsion tovarlar uchun QQSning tabaqalashtirilgan stavkalarini qo'llash imkoniyatini nazarda tutadi [6].

Ko'pgina tadqiqotchilar va kompaniyalar fikricha, soliq imtiyozlarining eng istiqbolli turi bu aksiyalarni sotishdan olinadigan moddiy manfaatlarga soliq stavkasini pasaytirishdir (aksiyalarni chiqarish orqali kapitalni shakllantirish yoki oshirish). AQShda qo'llash tajribasi ushbu vositaning venchur kapitali va kichik venchur tadqiqot kompaniyalarini rag'batlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [6].

Shu bilan birga, imtiyozli soliqqa tortish samaradorligi nafaqat tanlangan soliq vositalariga, balki ularning shaffofligi, hisoblash qulayligi, shuningdek, matnning aniqligi va huquqiy nizolar hamda bo'shliqlar soniga ham bog'liqdir [7].

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining asosiy mexanizmlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

**2-jadval**

**Turli mamlakatlarda qo'llaniladigan soliq imtiyozlari choralari<sup>1</sup>**

Soliq imtiyozlari choralari	Yaponiya	Janubiy Koreya	Xitoy	Hindiston	Singapur	Vengriya	Kanada
Foyda solig'i summasini kamaytirishda kapital qo'yilmalar summasini hisobga olish	✓	✓	✓		✓	✓	
Yangi sanoat korxonalarini uchun foyda solig'i va mulk solig'i bo'yicha soliq ta'tillari		✓	✓	✓			
Yuqori texnologik asbob-uskunalarining tezkor amortizatsiyasi			✓	✓	✓		
Mahalliy ishlab chiqarilgan uskunalarning tezkor amortizatsiyasi							✓
Sug'urta badallarining pasaytirilgan stavkalari			✓	✓	✓		

<sup>1</sup> [8] adabiyot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Davlat xaridlari sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda shuni yodda tutish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim shakllaridan biri ishlab chiqaruvchilar (mahalliy va xorijiy) o'rtasidagi raqobatdir. Bu, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni doimiy ravishda takomillashtirishga olib keladi hamda iste'molchilarga tegishli sifatidagi tovarlarni (texnologiyalarni, xizmatlarni) maqbul bozor bahosida olish imkonini yaratadi.

Biroq ayrim hollarda davlat xaridlari sanoatni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda davlat xaridlari bozori yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini tashkil etishini hisobga olsak, mahalliy korxonalarining davlat shartnomalaridan ustuvor shartlarda foydalanish imkoniyati ularga ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va ish o'rinlari sonini ko'paytirish imkonini beruvchi uzoq muddatli shartnomalar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, davlat ehtiyojlari uchun xaridlar bozori ko'plab mamlakatlarda proteksionistik siyosat yuritiladigan sohalardan biriga aylanadi. Bunda asosiy dalil shuki, soliq to'lovchilarning mablag'lari mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, Jahon Savdo Tashkiloti davlat xaridlari sohasida cheklovlar joriy etilishi orqali davlatlarning mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish imkoniyatlarini cheklamaydi. Import o'rnini bosishni rag'batlantirish maqsadida turli mamlakatlar misolida davlat ehtiyojlari uchun xaridlarni tashkil etish yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

AQSh qonunchiligiga muvofiq, hukumat ehtiyojlari uchun chet elda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish cheklangan [9]. Shu bilan birga, agar chet el kompaniyasi raqobatda xuddi shunday narx (import bojxona to'lovlarini to'laganidan keyin) bo'yicha aniq afzalliklarga ega bo'lsa yoki, shubhasiz, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etilayotgan o'xshash tovarlar va xizmatlar mavjud bo'lmasa, u holda bunday kompaniya g'olib bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu cheklovlar AQSh bilan erkin savdo shartnomasi tuzgan mamlakatlar kompaniyalariga, masalan, Kanadaga, rasman taalluqli emas. Aksincha, AQSh sanksiyalariga duchor bo'lgan mamlakatlar kompaniyalari musobaqalarda qatnashishdan to'xtatiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida import o'rnini bosish murakkab va qimmatga tushadigan ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan yirik davlat korxonalarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Intellektual faoliyat natijalarini ichki bozorda joriy etish ustuvorligi qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, bu talabni rag'batlantirish va himoyalash chorasida xizmat qiladi. Xitoy iqtisodiyotining amaliy yondashuviga ko'ra, agar rasmiy vakolatlar mavjud bo'lmasa ham, xorijiy texnologik yechimlarni o'rganish va moslashtirish yo'li tanlanadi. Aholining katta soni hisobga olinar ekan, Xitoy importdan qo'rqmaydi va, buning o'rniga, davlat qo'llab-quvvatlash resurslarini eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirishni afzal ko'radi [10].

Imtiyozli soliq rejimi va import qilinadigan yuqori texnologiyali butlovchi qismlarga nisbatan bojxona imtiyozlari [11] amal qiladigan maxsus sanoat zonalari (masalan, Xarbin MSZ) salohiyati ham keng ko‘lamda joriy etilmoqda.

AQShning bojxona va tariflarni tartibga solish siyosati joriy iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Turg‘unlik davrlarida yuqori import bojlari joriy etilgan (1828, 1861–1865, 1890), iqtisodiy o‘shish davrlarida esa aksincha, import tariflari pasaytirilgan. Import bojlaridagi mavsumiy o‘zgarishlar esa muayyan tovar guruhlariga nisbatan qo‘llaniladi. Qonunchilikda mustahkamlangan AQShda lobbichilik tizimi kuchli bo‘lgani sababli davlat organlari biznes tuzilmalari va kasaba uyushmalari ehtiyojlariga jiddiy e‘tibor qaratadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida har yili Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan yangilanib turadigan yagona bojxona tarifi mavjud [12]. Yevropa Ittifoqining yagona bojxona tarifi ikki ustunli tuzilishga ega. Birinchi ustunda avtonom (maksimal) boj stavkalari, ikkinchisida esa an‘anaviy stavkalar – eng qulay rejimga ega bo‘lgan va JSTga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar tovarlari yoki tegishli bitim tuzilgan mamlakatlar uchun mo‘ljallangan stavkalar ko‘zda tutiladi. Bunday tuzilma Yevropa Ittifoqi bilan savdo hamkorligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi rivojlanayotgan mamlakatlar tovarlari uchun ham bojxona imtiyozlari beradi, bundan kvotalar mustasno.

Yaponiya boj tarifida import bojxona to‘lovlari stavkalarining yanada ko‘proq turlari mavjud: umumiy, vaqtinchalik va imtiyozli. Umumiy stavkalar eng kam qo‘llaniladi, vaqtinchalik stavkalar esa qonun bilan belgilanadi [13]. Umuman olganda, bojxona va tariflarni tartibga solish haqida gapirganda, savdodagi to‘siqlar rasmiy asosda, biroq ba‘zida sun‘iy byurokratik xususiyat kasb etishi mumkinligini ta‘kidlash zarur.

Standartlashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida texnik jihatdan tartibga solish elementlaridan biri sifatida iqtisodiy o‘shishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu borada nemis mutaxassislarining tadqiqotlariga ko‘ra, Germaniyaning 1960-yildan 1990-yilgacha bo‘lgan yillik iqtisodiy o‘shishining uchdan bir qismi (taxminan 30 milliard marka) standartlarni qo‘llash samarasi bilan bog‘liq [14].

AQShda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni arzon ishchi kuchiga ega bo‘lgan mamlakatlarga o‘tkazmasliklari uchun yakuniy mahsulot tarkibida mahalliy komponentlar ulushiga nisbatan talablar joriy etiladi, lekin bu import o‘rnini bosish maqsadida emas. Biroq, shunga qaramay, AQShda komponentlarni ishlab chiqarish har doim ham iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydi. Shu sababli, importga tenglashtirilgan mahalliy butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlarni eksport qilishni nazarda tutuvchi davlat shartnomalari amalda qo‘llaniladi.

Xitoy Xalq Respublikasining import va eksport tovarlarini tekshirish to‘g‘risidagi qonuniga ko‘ra, ushbu tekshiruv chegaradagi nazorat punktida amalga oshirilishi lozim. Muhim tovarlar yoki to‘liq jihozlarni import qilishda esa, qabul qiluvchi tomonidan tashqi savdo shartnomasiga muvofiq dastlabki ekspertizadan o‘tkazilishi majburiy hisoblanadi [15]. Osiyo mamlakatlarida esa import operatsiyalarida kvotalash va litsenziyalash keng tarqalgan.

Jahon amaliyotida ofset operatsiyalari ko‘pincha harbiy-texnik sohada, mudofaa mahsulotlarini sotib olish sharti sifatida xorijiy hukumatlar yoki xorijiy firmalarning iltimosiga binoan tuziladigan bir qator kompensatsiya shartnomalari orqali amalga oshiriladi. Majburiy bo‘lgan bunday kompensatsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar yoki texnologiyalar transferi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiya kiritish, qo‘shma korxonalar ochish va boshqa shakllarda amalga oshiriladi. Sanoat sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompensatsiya operatsiyalaridan foydalanish innovatsion yo‘l bilan iqtisodiy rivojlanishga erishishning samarali vositasi hisoblanadi. Qoida tariqasida, davlat va kommunal ehtiyojlar uchun import qilinadigan tovarlarni sotib olishda yoki davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarda, agar buyurtma miqdori katta bo‘lsa, kompensatsiya mexanizmi qo‘llaniladi. Shartnomada mahsulot yetkazib beruvchilar uchun huquqiy majburiyatlar belgilanadi – ular tanlovda g‘olib bo‘lgan taqdirda xaridorning hududida joylashgan investitsiya loyihasiga bitim summasining bir qismini kiritishi shart bo‘ladi. Bunday holatda xorijiy investor mustaqil investitsiya loyihasini amalga oshirishi yoki uchinchi tomon loyihasiga mablag‘ yo‘naltirishi mumkin. Yana bir afzallik shuki, investor bu investitsiya loyihasini ofset bo‘yicha kelajakdagi kompensatsiya majburiyatlari hisobidan moliyalashtirishi mumkin.

Jahon amaliyotida fuqarolik sohasida ofset mexanizmini qo‘llash tartibini belgilovchi qonunchilikka ega bo‘lgan bir nechta davlatlar mavjud. Ular orasida Isroil va Birlashgan Arab Amirliklari alohida o‘rin tutadi. Ofset mexanizmiga asoslangan siyosat katta hajmdagi mablag‘larning chet elga chiqib ketishining salbiy ta‘sirini yumshatadi hamda milliy iqtisodiyotning ichki rivojlanishini rag‘batlantiradi, global raqobatbardoshlikni oshiradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqotimizda import o‘rnini bosishni rag‘batlantirish amaliyotining turli mamlakatlar tajribasi asosida, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida mahalliy tovarlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va import o‘rnini bosish imkoniyatiga erishishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- Tadqiqot soliq kreditini joriy etish;
- Aksiyalarni chiqarish orqali kapitalni shakllantirish yoki oshirishdan olinadigan moddiy ne‘matlarga soliq stavkasini pasaytirish;
- Intellektual faoliyatning ichki natijalarini joriy etishga qonunchilik ustuvorligini belgilash;
- Muayyan tovarlarga import bojlarining mavsumiy o‘zgaruvchanligini ta‘minlash;
- Yagona bojxona tarifining ikki ustunli tuzilmasini joriy etish;
- Yakuniy mahsulot tarkibidagi mahalliy komponentlar ulushiga minimal talablarni belgilash va boshqalar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyul PQ-307-son “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6102466>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyul PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6540957>
4. Бадалова А.Г. (2017) Риски импортозамещения: виды, проблемы оценки и особенности управления. // Имущественные отношения в РФ, №7 (190). – С.47. <https://cyberleninka.ru/article/n/riski-importozamescheniya-vidy-problemy-otsenki-i-osobennosti-upravleniya>
5. Руденко, Л.Г., Морозова, М.А. (2016) Государственная поддержка малого и среднего предпринимательства в зарубежных странах. // Вестник Московского университета имени С.Ю.Витте. Серия 1: Экономика и управление, №1 (16). <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-podderzhka-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-v-zarubezhnyh-stranah>
6. Басова, А.В. (2013) Исследование и разработка способов стимулирования инновационной деятельности посредством налогового инструментария. Автореф.дисс. канд. экон. наук. – 20 стр. <https://www.dissercat.com/content/issledovanie-i-razrabotka-sposobov-stimulirovaniya-innovatsionnoi-deyatelnosti-posredstvom-n>
7. Бадалов, А.Л. (2008) Частно-государственное партнерство в реализации инвестиционных проектов. // ЭКО, №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/chastno-gosudarstvennoe-partnerstvo-v-realizatsii-investitsionnyh-proektov>
8. Воронина, Л.А., Иосифов, В.В., Дира, Д.В., Нестеренко, Е.А. (2012) Мировой опыт налогового стимулирования инвестиций в развитие высокотехнологичных видов экономической деятельности. // Зарубежный опыт, №13 (493). <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-opyt-nalogovogo-stimulirovaniya-investitsiy-v-razvitie-vysokotekhnologichnyh-vidov-ekonomicheskoy-deyatelnosti>
9. Закон США о закупках товаров американского происхождения – «Buy American Act» (1933). [https://en.wikipedia.org/wiki/Buy\\_America\\_Act](https://en.wikipedia.org/wiki/Buy_America_Act)
10. Wang R. (2009) China’s Accession to WTO’s Government Procurement Agreement: Domestic Challenges and Prospects in Negotiation. URL: <https://www.nottingham.ac.uk/iaps/documents/cpi/briefings/briefing-48-china-gpa-ascension.pdf>
11. Qiao Y., Wang C. China Green Public Procurement Program: Issues and Challenges in its Implementation. <https://www.ipa.org/IPPC4/Proceedings/07GreenProcurement/Paper7-6.pdf>

12. Единый таможенный тариф Европейского союза. Регламент Совета ЕС от 12.10.1992 г. №2913/92.: [https://nrm.uz/contentf?doc=172509\\_reglament\\_soveta\\_\(ees\)\\_n\\_291392\\_uchrejdoyushchiy\\_tamojennyu\\_kodeks\\_coobshchestva\\_\(lyuksemburg\\_12\\_oktyabrya\\_1992\\_goda\)&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=172509_reglament_soveta_(ees)_n_291392_uchrejdoyushchiy_tamojennyu_kodeks_coobshchestva_(lyuksemburg_12_oktyabrya_1992_goda)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

13. Таможенная политика и таможенные службы зарубежных стран: Информационно-справочное пособие. (2012) / Под общ. ред. Т.Ф.Цеханович, Н.Г.Кудряшова. – Мн.: БГУ. – 137 с. [https://fir.bsu.by/images/departments/ca/ca-materials/ca-studyprocess/tsekhanovich/tsekhanovich\\_2012\\_tamozh\\_politica.pdf](https://fir.bsu.by/images/departments/ca/ca-materials/ca-studyprocess/tsekhanovich/tsekhanovich_2012_tamozh_politica.pdf)

14. Бережнова, А.В., Шутова, О.Э. Современные проблемы стандартизации при разработке национальных стандартов на основе международных. <https://conf.sfu-kras.ru/sites/mn2013/thesis/s060/s060-004.pdf>

15. Закон Китайской Народной Республики «Об экспертизе импортно-экспортных товаров». <https://chinaperevod.com/law/zakon-kitayskoy-narodnoy-respubliki-ob-ekspertize-importno-eksportnyh-tovarov>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**